



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

AFG‘ONISTON TA’LIM TIZIMIDA O‘ZBEK TILINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Quwanch EHSANULLA*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Afg‘oniston tarixida o‘zbek tilining ta’lim sohasidagi o‘rni va rivojlanish bosqichlari o‘rganilgan. Tadqiqotda Amir Amonullohxon davridan to eski Islom Respublikasi davrigacha bo‘lgan davr oralig‘ida o‘zbek tilining ta’lim tizimidagi ijobiy va salbiy jarayonlari tahlil qilingan. Shuningdek, Afg‘oniston tarixida ilk bor o‘zbek tilida chop etilgan maktab darsliklari ham ilmiy jihatdan o‘rganilib, ularning ayrim suratlari maqolaga keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Afg‘oniston, o‘zbek tili, ta’lim, oliy ta’lim, darsliklar.

The Formation and Development Stages of the Uzbek Language in the Education System of Afghanistan

Abstract

This article examines the role and development of the Uzbek language in the field of education throughout Afghanistan’s history. It analyzes both the positive and negative aspects of the use of the Uzbek language in Afghan education from the reign of Amir Amanullah Khan to the era of the old Islamic Republic. The study also explores the first school textbooks published in the Uzbek language in Afghanistan, providing examples and analysis of their content.

Keywords: Afghanistan, Uzbek language, education, higher education, textbooks.

Afg‘onistonda zamonaviy ta’lim tizimi XX asr boshlarida shakllangan bo‘lib, uning asosi Amir Habibulloxon (1901–1919) davrida qo‘yilgan. 1903-yilda Kobulda tashkil etilgan "Habibiya maktabi" mamlakatdagi birinchi davlat maktabi hisoblanadi. Ushbu maktab faqat poytaxtda faoliyat yuritgan bo‘lsa, viloyatlarda ta’lim asosan masjidlarda va uy sharoitida, xalqning shaxsiy tashabbusi bilan olib borilgan. O‘sha paytda “Maorif anjumani” nomli ta’lim tashkiloti Sardor Inoyatulloxon rahbarligida faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, uning tarkibida hind va turk ziyolilari ham bo‘lgan. Afg‘oniston tarixchisi G‘ulom Muhammad G‘ubor ma’lumotiga ko‘ra, Hasan Halmiy Afandi, Muhammad Fazliy Rassom va Ali Afandi singari turkiy o‘qituvchilar Habibiya maktabida turk tili fanidan dars berganlar (G‘ubor, 1999, 141–148-b.).

1909-yilda esa Kobulda “Harbiya maktabi” tashkil etilgan. Unda ham turk o‘qituvchilari Ali Afandi, Nazif Afandi va Izzat Afandilar “Sarfi turkiy” nomli

* Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). Faryob davlat universiteti, Afg‘oniston, ehsanullah.quwanch1@gmail.com

darslik asosida ta'lim berganlar (Kuhzod, 2004, 406–408-b.). Ushbu darslik amir Habibulloxon davrida tayyorlanib, Afg'oniston ta'lim tarixida turkiy til asosidagi ilk o'quv qo'llanma sifatida e'tirof etiladi.

Amonullohxon davrida ta'lim va o'zbek tili

Amir Amonullohxon (1919–1929) hukmronligi davrida ta'lim tizimi modernizatsiyalandi. 1918-yilda davlat nashriyotida “Kitobi alifboyi turkiy” chop etilib, Habibiya va Harbiya maktablarida o'quv qo'llanma sifatida foydalanilgan. Shu bilan birga, bu davrda o'zbek tilida boshqa darsliklarning nashr etilmaganligi ta'kidlanadi (Yorqin, 2017).

1921-yilda maorif nazoratchisi Muhammad Sulaymonxon buyrug'i bilan “Kitobi alifboyi turkiy” 500 nusxada qayta chop etilgan bo'lsa-da, keyingi qirolik davrlarida o'zbek tilida yangi darsliklar chop etilmadi. Bu holat mamlakatdagi o'zbek aholining ta'lim sohasida cheklanganligini ko'rsatadi (Eldosh, 2020, 5-b).



Sarfi turkiy- nashr



Kitob alifboyi turkiy – nashr

Savr inqilobidan keyingi davr

1978-yilgi “Savr inqilobi”dan so'ng mamlakatda ijtimoiy o'zgarishlar bilan birga o'zbek tilida ta'lim yo'lga qo'yila boshladi. Xalq ta'limi vazirligi huzurida tashkil etilgan “Ta'lif va tarjima bosh boshqarmasi” tarkibida o'zbek tili kafedrasini ochildi. Abdulaziz Gandumiy, Muhammad Umar Haydariy, Abdulloh Toshqin, Abdurahmon Amirxon Aziziy va boshqalar tomonidan o'zbek tilida ilk darsliklar yozildi (Quyosh, 2020, 246-b).

1981–1985-yillar davomida bu kafedra a'zolari riyoziyot, tabiatshunoslik, diniy va tarbiya fanlari bo'yicha o'zbek tilidagi kitoblarni yaratdilar. Doktor Orif Usmonov rahbarligida O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi mutaxassislarining maslahatlari asosida 1–4-sinflar uchun darsliklar chop etildi. Biroq 5-sinfdan yuqori bosqichlarda o'qitish dari tilida davom ettirildi.



Tolibonlarning oldingi davrida ta'lim inqirozi

1997-yilda tolibonlarning Kobulni egallashi natijasida o'zbek tili ta'lim tizimidan butunlay chiqarib tashlandi. 2001-yilgacha o'zbek tilida dars o'tish taqiqlanib, ta'lim faqat dari va pashto tillarida olib borildi.

Yangi hukumat davrida o'zbek tili ta'limining tiklanishi

2001-yilda tolibon rejimi qulagach, yangi hukumat tomonidan o'zbek tilini ta'lim tizimiga qayta joriy etish ishlari boshlandi. Xalq ta'limi vazirligi tarkibidagi "Ta'limiy nisob bosh boshqarmasi" a'zolari – tilshunos Azizulla Aral, doktor Shafiqa Yorqin, Muhammad Halim Yorqin, Utubullah Quyosh va boshqalar tomonidan 1–10-sinflar uchun o'zbekcha darsliklar tayyorlandi (Quyosh, 2020, 246-b).

Ammo ayrim byurokratik to'siqlar sababli bu darsliklarning ko'pi yillar davomida maktablarga tarqatilmadi. 11–12-sinf darsliklari ham tayyorlangan bo'lsa-da, ularning chop etilishi amalga oshmagan. Ba'zi elektron nusxalar esa shaxsiy tashabbuslar bilan o'zbeklar yashovchi hududlarga yetkazilgan.



Oliy ta'limdagi o'zbek tili

1983-yilda Kobuldagi bilim yurtida ilk bor "o'zbek tili va adabiyoti kafedrası" tashkil etildi. Bu bo'lim 1993-yilgacha faoliyat ko'rsatib, ichki urushlar boshlanishi

bilan yopildi. Faqat 2018-yildan boshlab kafedra qayta tiklandi va bugungi kunda turli etnik guruh vakillari bu yo‘nalishda tahsil olmoqda (Toshqinbohoiy, 2020, 77–78-b.).

Hozirda Kobul va shimoliy viloyatlar bilim yurtlarida sakkizta o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mavjud, shuningdek, to‘qqizta o‘qituvchilar tayyorlash institutida ham shu yo‘nalish mavjud edi, lekin, hozir kunda yopilgan.

O‘zbekiston bilan hamkorlik

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Oliy ta‘lim vazirligi va Afg‘oniston Oliy ta‘lim vazirligi o‘rtasida hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Ushbu hamkorlik asosida Afg‘onistonlik o‘zbek yoshlari kollej, bakalavr, magistratura va PhD bosqichlarida O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olishgan. Jumladan, Termizdagi Afg‘on markaz universitetida 150 dan ortiq bakalavr talabalar, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida esa magistr va doktorantlar tahsil olgan.

Xulosa

Afg‘oniston ta‘lim tizimida o‘zbek tili bir asrdan ortiq davr davomida murakkab tarixiy bosqichlarni bosib o‘tdi. Dastlab Habibulloxon va Amonullohxon davrlarida turk tili maktab ta‘limiga kirib kela boshlagan bo‘lsa, keyingi siyosiy o‘zgarishlar bu jarayonni sekinlashtirdi. 1978-yilgi Savr inqilobi davrida o‘zbek tili ta‘lim maydoniga qaytdi va ilk bor darsliklar yaratildi. Biroq tolibonlar hokimiyati yillarida bu soha butunlay inqirozga yuz tutdi. 2001-yildan keyingi yangi hukumat davrida esa o‘zbek tilida ta‘limni tiklash va rivojlantirish yo‘lida muhim qadamlar qo‘yildi. Kobul va shimoliy viloyatlardagi o‘zbek tili kafedralarining faoliyati o‘zbek madaniyati va ilmiy merosini saqlashda muhim rol o‘ynadi. O‘zbekiston bilan o‘rnatilgan hamkorlik esa Afg‘onistonlik o‘zbek yoshlarining ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qilindi. Shu bois, o‘zbek tili Afg‘oniston ta‘lim tizimining ajralmas qismi sifatida yanada rivojlanishi uchun ilmiy, tashkiliy va siyosiy qo‘llab-quvvatlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

Eldosh, Muhammad Yosin. (2020). *Afg‘oniston umum maktabarida o‘zbek adabiyotini o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari* (dissertatsiya). Toshkent.

G‘ubor, G‘ulom Muhammad. (1999.) *Torixi adabiyoti davrayi Muhammadzayho, Pishovur*: Markazi nasharoti Orash, soli duvumi chop.

Kuhzod, Muhadda Ali, Ali Muhammad Zuhmo va digarom. (2004). *Torixi adabiyoti Afg‘oniston (panj ustod)*, Kobul: kitobxonayi rashidiya – kitobxonayi nasharoti Iqra. Safhaho.

Quyosh, Utubullah. (2020). *O‘zbek tili darslik kitoblar va ularning hozirgi vaziyati o‘zbek tili milliy kuni 29 mizon-maqolalar to‘plami*. Kobul: Afg‘oniston, Voja nashriyoti.

<https://bayonifoundation.com>

<https://www.radionowruz.com/uzbek-language>